

2022-yil 23-avgust

“O'zkimyosanoat” AJ markaziy apparati va tarmoq korxonalari xodimlari o'rtasida “Zakovat” intellektual turniri o'tkazildi



O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Zakovat” intellektual o'yinini aholi o'rtasida ommaviy-ma'rifiy harakatga aylantirish va boshqa intellektual o'yinlarni rivojlantirishga oid chora-tadbirlar to'g'risida” 2022-yil 20-yanvardagi PQ-96-son qarori ijrosini ta'minlash, shuningdek, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lami islohotlarda xodimlarning faol ishtirokini ta'minlash, yuksak ma'naviyatli, mustaqil va erkin fikrlaydigan, zamonaviy ilm-fan yutuqlarini puxta o'zlashtirgan, kuchli bilimga ega bo'lgan xodimlarni qo'llab-quvvatlash va ularga o'z iqtidorlarini namoyish etish uchun imkoniyat yaratish hamda ularni rag'batlantirish maqsadida 1-sentabr - Mustaqillik bayrami munosabati bilan joriy yilning 23-avgust kuni “O'zkimyosanoat” AJ markaziy apparati va tarmoq korxonalari xodimlari o'rtasida “Zakovat” intellektual turniri o'tkazildi. Xodimlarning bilim va salohiyatlari sinalgan bellashuvda “O'zkimyosanoat” AJ markaziy apparatining “Everest” jamoasi g'oliblikni qo'lga kiritdi. 2-o'rinni esa “Birinchi rezinotexnika zavodi” MCHJning “Bars” jamoasi egalladi. “Maxam-Chirchiq” AJning “Al-Kimyogar” jamoasi esa 3-o'rin sohibi bo'ldi. G'olib va sovrindorlar pul mukofotlari va esdalik sovg'alari bilan taqdirlanishdi. 1-o'rinni egallagan jamoaga 50 mln so'm, 2-o'rinni egallagan jamoaga 25 mln so'm va 3-o'rinni egallagan jamoaga 15 mln so'mlik pul mukofotlari uchun maxsus sertifikatlar topshirildi. Shu bilan birga, mazkur intellektual turnirda

qatnashgan barcha jamoalarga kitoblar jamlanmasi va sertifikatlar taqdim etildi.







"O'zkiyosanoat" AJ Matbuot xizmati

source:

"O'zkiyosanoat" aksiyadorlik jamiyati

<https://new.uzkiyosanoat.uz/oz/press/news/uzkiyosanoat-aj-markaziy-apparati-va-tarmoq-korxonalar-xodimlari-urtasida-zakovat-intellektual-turniri>